


O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT
SAN‘AT VA MADANIYAT INSTITUTI**

“Kiritdi”

**O‘zbekiston davlat
san‘at va madaniyat
instituti rektori**


N.B. Sayfullayev

“01” 06 2024-y

“Kelishildi”

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta‘lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi**



“01” 06 2024-y

“Tasdiqlayman”

**O‘zbekiston Respublikasi
Madaniyat vazirligi**



“01” 06 2024-y

**KASBIY (IJODIY) IMTIHONI DASTURI
VA BAHOLASH MEZONI**

**60211000 – San‘atshunoslik: sahna va ekran san‘ati dramaturgiyasi
ta‘lim yo‘nalishi uchun**

- 1. Dramaturg mahorati fanidan**
- 2. Drama nazariyasi fanidan**

Toshkent-2024

Dastur O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Badiiy, o‘quv-uslubiy kengashida ko‘rib chiqilgan va ma’qullangan. 2024-yil __ _____ __-sonli majlis bayoni.

Tuzuvchilar:

- A.Z.Rizayev – O‘zDSMI “San’atshunoslik” kafedrası professori, san’atshunoslik fanlari nomzodi
- F.M.Abduvohidov – O‘zDSMI “San’atshunoslik” kafedrası dotsenti, (PhD)

Taqrizchilar:

- M.T.To‘laxo‘jayeva – O‘zDSMI “San’atshunoslik” kafedrası professori, san’atshunoslik fanlari doktori
- A.H.Ismoilov – San’atshunoslik instituti “Teatr va xoreografiya” bo‘limi mudiri, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Kirish

60211000 – San’atshunoslik: sahna va ekran san’ati dramaturgiyasi bakalavriat ta’lim yo’nalishiga kiruvchi abituriyentlarning kasbiy (ijodiy) imtihoni, me’yoriy-huquqiy hujjatlar asosida shakllantiriladi va kirish imtihonlari unga muvofiq o’tkaziladi.

Ixtisoslik bo’yicha kirish imtihonlari, har bir ixtisoslik uchun ta’kidlangan qabul talablariga muvofiq ravishda o’tkaziladi.

Ixtisoslik bo’yicha imtihon o’tkazilishining ketma-ketligi, institut qabul komissiyasi tomonidan belgilanadi va har yili qabul qilish qoidalari shakllantiriladi.

60211000 – San’atshunoslik: sahna va ekran san’ati dramaturgiyasi san’at sohasidagi ta’lim yo’nalishi bo’lib, u o’z ichida sahna va ekran san’ati dramaturgiyasining zamonaviy va tarixiy jarayonlarini o’rganish, keng profildagi ijodkor dramaturglar sifatida-dramatik va musiqali teatrlar, bolalar, yoshlar va qo’g’irchoq teatrlari hamda estrada tomoshalari uchun turli janrdagi pyesalar yaratish, teatr, televideniye va radio uchun mo’ljallangan dramatik asarlar (pyesalar, ssenariylar) yaratish, radio spektakllar, teleradio eshittirishlar, hujjatli va badiiy kino, uchun ssenariylar yozish majmuini qamrab oladi.

Fanning maqsad va vazifalari

60211000 – San’atshunoslik: sahna va ekran san’ati dramaturgiyasi ta’lim yo’nalishida kasbiy (ijodiy) imtihonlar abituriyentlarning dramaturg mahorati va drama nazariyasi fanlaridan ijodiy-ilmiiy ko’nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o’tgaziladi.

Abituriyentlar ixtisoslikning quyidagi asosiy драматург маҳорати va драма назарияси fanlaridan kasbiy (ijodiy) imtihon topshiradi.

Dramaturg mahorati fani bo’yicha

Dramaturg mahorati fanidan kirish imtihonida abituriyent berilgan savollarga og’zaki javob berishi kerak. Savol-javobda abituriyent o’z salohiyatini ko’rsatishi lozim. Savol-javob sahna va ekran san’ati dramaturgiyasi sohasiga tegishli mavzular doirasida o’tkazilib, suhbat jarayonida ixtisoslik bo’yicha abituriyentning dunyoqarashi, fikrlash darajasi, ijodiy qobiliyati, kasbiy tasavvuri tekshiriladi.

Dramaturg mahorati faniga qo’yiladigan talablar:

– sahna va ekran san’ati dramaturgiyasi to’g’risida umumiy tasavvurga ega bo’lishi;

– dramaturgiyaning shakllanish va rivojlanish bosqichlari;

– jahon va o’zbek dramaturglari ijodidan xabardor bo’lishi;

– jadid dramaturgiyasining Milliy teatr shakllanishiga ta’siri haqidagi tushunchasi;

- dramaturgiyaning tur va janrlarini (drama, komediya, tragediya, musiqali komediya, musiqali drama, lirik drama, lirik komediya, romantik – afsonaviy drama, satirik, yumoristik, grotesk komediya, buffonada va boshqalar) bilishi;
- dramaturgik asarlarni tahlil qilish mahorati;
- mashhur jahon va o‘zbek dramaturglari ijodidan xabardorligi;
- teatr ijodkorlari haqida tasavvurga ega bo‘lishi;
- o‘zbek milliy teatr san’atining yetuk namoyandalari (rejissor, aktyor, rassom va boshqalar) haqida tasavvurga ega bo‘lishi;
- qo‘g‘irchoq teatri dramaturgiyasining o‘ziga xos xususiyatlari haqidagi tasavvuri;
- Xalqaro va Respublika miqyosidagi teatr festivallaridan xabardorligi;
- dunyoqarashi, muomala madaniyati va bilimni bayon qilish mahorati sinovdan o‘tkaziladi.

Drama nazariyasi fani bo‘yicha

Drama nazariyasi fanida abituriyentning pyesa va spektakllarni o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish qobiliyati sinalladi. Abituriyent drama nazariyasi bo‘yicha tasavvur va tahlil qilish imkoniyatlarini hamda tushunchalarini suhbat jarayonida namoyon etadi.

Drama nazariyasi faniga qo‘yiladigan talablar:

- drama nazariyasi haqida umumiy tasavvurga ega bo‘lishi;
- drama nazariyasining o‘ziga xos xususiyatlari;
- dramaturgiyaning tur va janrlarini bilishi;
- dramaturgik kompozitsiya elementlarini bilishi;
- sahna uchun mo‘ljallab yozilgan pyesaning kinossenariydan farqi va o‘xshash tomonlari;
- dramaturgik asarlarni tahlil qila olish qobiliyatiga ega bo‘lishi;
- dramaturgning rejissor bilan hamkorligi va spektakl jarayonlari haqida tasavvurga ega bo‘lishi;
- spektakllarni mavzu va janr jihatidan bir-biridan farqlay olish mahorati;
- dunyoqarashi, muomala madaniyati va bilimni bayon qilish mahorati sinovdan o‘tkaziladi.

Abituriyent bilimiga qo‘yiladigan talablar

Dramaturg mahorati fanidan kirish imtihonida abituriyent berilgan savollarga og‘zaki javob berishi kerak. Savol-javobda abituriyent o‘z salohiyatini ko‘rsatishi lozim. Savol-javob kino san’ati sohasiga tegishli mavzular doirasida o‘tkazilib, suhbat jarayonida ixtisoslik bo‘yicha abituriyentning dunyoqarashi, fikrlash darajasi,

qobiliyati, kasbiy tasavvuri sinovdan o'tkaziladi.

Dramaturg mahorati fanidan abituriyent sahna va ekran san'ati dramaturgiyasi to'g'risida umumiy tasavvurga ega bo'lishi, dramaturgiyaning shakllanish va rivojlanish bosqichlari, jadid dramaturgiyasi va teatri haqida tasavvurga ega bo'lishi, dramaturgiyaning tur va janrlarini (drama, komediya, tragediya, musiqali komediya, musiqali drama, lirik drama, lirik komediya, romantik – afsonaviy drama, satirik, yumoristik, grotesk komediya, buffonada va boshqalar) tushunishi, dramaturgik kompozitsiya elementlarini bilishi, dramaturgik asarlarni tahlil etish qobiliyatiga ega bo'lishi, teatr ijodkorlar haqida tasavvurga ega bo'lishi, o'zbek milliy teatrining darg'alari (rejissor, operator, aktyor va boshqalar) haqida tasavvurga ega bo'lishi, qo'g'irchoq teatri dramaturgiyasi haqida tasavvurga ega bo'lishi, O'zbekistonda o'tkazilayotgan teatr festivallaridan xabardor bo'lishi kerak.

Drama nazariyasi fanidan abituriyentga qo'yiladigan talablar: Drama nazariyasi haqidagi umumiy tasavvuri, drama nazariyasining o'ziga xos xususiyatlarini, dramaturgiyaning tur va janrlarini, jahon va o'zbek dramaturglari ijodini, sahna uchun mo'ljallab yozilgan pyesaning kinossenariydan farqli jihatlarini va o'xshash tomonlarini, dramaturgik asarlarini nazariy jihatdan tahlil qilishi, dramaturgning rejissor bilan hamkorligi va spektakl jarayonlarini, spektakllarni mavzu va janr jihatidan bir-biridan farqlay olishi kerak.

Kasbiy (ijodiy) imtihonlar quyidagi mezon asosida baholanadi:
Dramaturg mahorati fani bo'yicha

T.r.	Talabning mazmuni	Maksimal ball
1.	Sahna va ekran san'ati dramaturgiyasi haqidagi umumiy tasavvuri	8
2.	Dramaturgiyaning shakllanish va bugungi jarayonlaridan xabardorligi	10
3.	Jadid dramaturgiyasining Milliy teatr shakllanishiga ta'siri haqidagi tushunchasi	10
4.	Dramaturgiyaning tur va janrlari haqidagi tushunchasi	10
5.	Dramaturgik asarlarni tahlil qilish qobiliyati	10
6.	O'zbek milliy teatr san'atining yetuk namoyandalari (rejissor, aktyor, rassom va boshqalar) haqida tasavvuri	10
7.	Mustaqillik davri dramaturgiyasi va o'zbek teatrlari faoliyatidan xabardorligi	10
8.	Qo'g'irchoq teatri dramaturgiyasining o'ziga xos xususiyatlari haqidagi tasavvuri	10
9.	Xalqaro va Respublika miqyosidagi teatr festivallaridan	9

	xabardorligi	
10.	Abituriyentning dunyoqarashi, muomala madaniyati va bilimini bayon qilish mahorati	6
	Jami	93

Drama nazariyasi fani bo'yicha

T.r.	Talabning mazmuni	Maksimal ball
1.	Drama nazariyasi haqida umumiy tasavvurga ega bo'lishi	6
2.	Dramaturgik janrlarni farqlay olish qobiliyati	7
3.	Jahon va o'zbek dramaturglari ijodidan xabardorligi	6
4.	Dramaturgik asarlarni tahlil qilish qobiliyati	7
5.	Asar kompozitsiyasi haqidagi tushunchasi	6
6.	Asar tuguni va yechimi haqida tasavvuri	6
7.	Dramaturgning rejissor bilan hamkorligi va spektakl jarayonlari haqida tushunchasi	6
8.	Spektakllarni mavzu va janr jihatidan bir-biridan farqlay olish mahorati	7
9.	Mustaqillik davri dramaturgiyasi va teatrlar repertuaridan xabardorligi	6
10.	Teatr san'atining badiiy, estetik va tarbiyaviy ahamiyati haqidagi tushunchasi	6
	Jami	63

Kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o'tkazish tartibi

60211000 – San'atshunoslik (sahna va ekran san'ati dramaturgiyasi) ta'lim yo'nalishiga hujjat topshirgan abituriyentlarga jadval asosida belgilangan kunlarda ikkita fandan iborat ijodiy imtihonlar bo'lib o'tadi.

Ijodiy imtihonlar qabul komissiyasi tomonidan shakllantirilgan guruhlarda suhbat, savol – javob asosida maxsus jihozlangan xonalarda o'tkaziladi.

Apellyatsiya tartibi

Abituriyentlar kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari bo'yicha institut qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hayatiga natijalar e'lon qilingan kundan boshlab 24 soat ichida murojaat qilishlari mumkin. Murojaat faqat o'zining ballari haqida bo'lsa qabul qilinadi, boshqa abituriyent haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.

Asosiy va qo‘shimcha o‘quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

1. Mirziyoyev.Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –T.: O‘zbekiston, 2021.
2. Adabiyot va san‘at, madaniyatni rivojlantirish-xalqimiz ma‘naviy olamini yuksaltirishning muhim poydevoridir. Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari bilan uchrashuvdagi ma‘ruzasi. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017-yil, 4 avgust, 153-son.
3. “Madaniyat va san‘at sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori.- T.:2017-yil 15-fevral.
4. Abdusamatov H. Drama nazariyasi. –T.: G‘afur G‘ulom, 2000.
5. Abuvohidov F. Dramaturgiya tarixi. –T.: Fan va ta‘lim poligraf. 2021.
6. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud ahloq. –T.: Sharq, 1994.
7. Ikromov H. Davr va teatr. –T.: O‘zbekiston ensiklopediyasi. 2009.
8. Islomov T. Tarix va sahna. –T.: G‘afur G‘ulom, 1998.
9. Pirmatov M. Ssenariynavislik. – T.: Innovatsiya-Ziyo, 2021
10. Rizayev Sh. Jadid dramasi. –T.: Sharq, 1997.
11. Tursunboyev S. Xorijiy teatr tarixi. –T.: Fan va texnologiyalari, 2007.
12. Tursunov T. XX asr o‘zbek teatri tarixi. –T.: O‘zDSI, 2009.
13. Tursunboyev S. O‘zbek teatr sarhadlari. –T.: O‘zDSI, 2008.
14. To‘laxo‘jayeva M. Qozoqboyev T. Drama nazariyasi. –T.: Fan, 2015.
15. To‘plam: Ma‘naviyat yulduzlari. –T.: A.Qodiriy. 1999.
16. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. –T.: Ma‘naviyat, 2000.
17. Jabborov A. O‘zbek musiqali dramasi. –T.: G‘afur G‘ulom, 2000.
18. Qodirov M. O‘zbek an‘anaviy teatri tarixi. –T.: Sharq, 2003.

Internet saytlari

1. www.ziynet.uz,
2. www.infocom.uz,
3. www.kino-teatr.ru
4. [ttp://www.dsmi.uz](http://www.dsmi.uz)